

---

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan xabarga MUNOSABAT

***Joriy yilning 7 sentyar kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “Gaz ballonni to’ldirish 2-3 oyga cho’zilyapti” sarlavhasi ostida xabar tarqatildi.***

Ushbu xabarda: - **“Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani Do’rmon shaharchasidan yozmoqdamiz. Gaz ballonni vaqtida to’ldirib berishmayapti. 2-3 oyga cho’zilyapti. Mutasaddilardan iltimos, vaqtida to’ldirib berishsin”** - deya shikoyat qilingan.

Shikoyat xati ismi-sharifi ko’rsatilmagan fuqaro tomonidan yozilgan bo’lsada, mutasaddi idora xodimlari ishtirokida atroflicha o’rganildi.

Do’rmon mahalla fuqarolar yig’inida 823 ta xonadon suyultirilgan gaz bilan ta'minlanib, ushbu xonadonlarga tumangaz xodimlari tomonidan joriy yil 14 iyuldan 23 iyulgacha suyultirilgan gaz yetkazib berilgan. Ushbu mahallada yashovchi iste'molchilarga tuman hokimligi tomonidan tasdiqlangan grafik asosida, 09.09.2020 yil kunidan boshlab suyultirilgan gaz yetkazib beriladi.

**Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2020-09-09 13:13:05